



LINGUOCULTURAL FEATURES OF THE CONCEPT OF "WOMAN": BASED ON ENGLISH AND KARAKALPAK PHRASEOLOGY

Kalimbetova Kizlargul Yusupovna

Assistant, Nukus state pedagogical institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20487528>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2026

Accepted: 29th May 2026

Online: 30th May 2026

KEYWORDS

Concept of woman, linguoculturology, phraseology, gender stereotypes, national mentality, culture, female image, concept.

ABSTRACT

This article comparatively analyzes the linguocultural features of the concept of "woman" in English and Karakalpak phraseology. The study examines how phraseological units related to women reflect national mentality, traditions, aesthetic views, moral values, and gender stereotypes. In Karakalpak phraseological units, the image of a woman is mainly associated with modesty, family values, morality, and national traditions, whereas English phraseology emphasizes individuality, independence, and personal character traits. Furthermore, the article highlights the importance of phraseological units as significant linguocultural elements reflecting the culture and worldview of a nation.

"AYOL" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI: INGLIZ VA QORAQALPOQ FRAZELOGIYASI MISOLIDA

Kalimbetova Kizlargul Yusupovna

Assistent, Nukus davlat pedagogika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20487528>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2026

Accepted: 29th May 2026

Online: 30th May 2026

KEYWORDS

Ayol konsepti, lingvokulturologiya, frazeologizm, gender stereotiplari, milliy mentalitet, madaniyat, ayol obrazi, konsept.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq tillaridagi "ayol" konseptining lingvokulturologik xususiyatlari frazeologik birliklar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ayol-qizlarga oid frazeologizmlar orqali xalqning milliy mentaliteti, urf-odatlar, estetik qarashlari, axloqiy me'yorlari hamda gender stereotiplari yoritiladi. Qoraqalpoq tilidagi frazeologik birliklarda ayol obrazi asosan hayo, ibo, oilaparvarlik va milliy qadriyatlar bilan bog'liq holda ifodalansa, ingliz tilidagi frazeologizmlarda individuallik, mustaqillik va shaxsiy xarakter xususiyatlari ustuvorligi kuzatiladi. Shuningdek, maqolada frazeologizmlarning xalq madaniyatini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birlik sifatidagi ahamiyati ochib beriladi.



Kirish. Til va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab hodisalardir. Har bir xalq o'zining tarixiy tajribasi, urf-odatlarini, axloqiy qarashlari va estetik idealini til orqali namoyon qiladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar xalqning ko'p asrlik hayot tajribasini, dunyoni qabul qilish tarzini hamda milliy tafakkurini o'zida mujassamlashtirganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1, 9-23].

Lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi fan sifatida xalq mentalitetining til birliklarida qanday aks etishini tahlil qiladi. Frazeologizmlar esa mazkur yo'nalishda eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri sanaladi. Chunki ular oddiy nominativ birlik emas, balki milliy madaniyatning semantik va emotsional kodini saqlovchi vositadir. Xususan, ayol obraziga oid frazeologik birliklar jamiyatning genderga bo'lgan munosabatini, oilaviy qadriyatlarini hamda axloqiy talablarini yaqqol aks ettiradi [5, 169-172].

"Ayol" konsepti turli xalqlarda turlicha talqin qilinadi. Ayrim madaniyatlarda ayol ko'proq oilaning tayanchi, hayo va sadoqat timsoli sifatida qaralsa, boshqa madaniyatlarda uning individualligi va ijtimoiy faolligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan ingliz va qoraqalpoq tillaridagi frazeologizmlar asosida "ayol" konseptini qiyosiy o'rganish muhim ilmiy va madaniy ahamiyatga ega.

Konsept tushunchasi kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada

inson tafakkurida shakllanadigan murakkab mental birlik sifatida talqin qilinadi. "ayol" konsepti esa faqat biologik jinsni emas, balki jamiyatning ayol haqidagi tasavvurlarini, stereotiplarini, axloqiy qarashlarini va madaniy me'yorlarini ham qamrab oladi. Demak, ayol obrazi xalqning tarixiy tajribasi bilan shakllanadigan lingvomadaniy hodisa hisoblanadi. Frazeologik birliklar aynan shu konseptning eng yorqin ifodachisi sanaladi. Chunki frazeologizmlar xalqning kundalik turmushi, urf-odatlarini va qadriyatlarini bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga keladi. Masalan, qoraqalpoq tilidagi ayolga oid frazeologizmlar asosan oilaviy hayot, hayo va odob bilan bog'liq bo'lsa, ingliz tilidagi birliklarda individual xarakter, hissiy holat va mustaqillik ustuvor hisoblanadi [3, 192-200].

Qoraqalpoq xalqining ayol-qizlarga bo'lgan munosabati milliy urf-odatlar, oilaviy qadriyatlar va sharqona axloq me'yorlari asosida shakllangan. Shu sababli qoraqalpoq frazeologiyasida ayol obrazi ko'proq ibo, hayo, mehnatsevarlik va oilaparvarlik bilan bog'liq holda ifodalanadi. Masalan, erjetken qiz va boy jetken qiz frazeologizmlari qiz bolaning voyaga yetganini anglatadi. Biroq ushbu birliklarning semantik mazmuni oddiy biologik o'sish bilan cheklanmaydi. Ular qizning jamiyatdagi yangi maqomi, oilaviy hayotga tayyorligi va ijtimoiy mas'uliyatini ham bildiradi. Demak, qoraqalpoq xalqining mentalitetida qizning ulg'ayishi muhim ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilingan. Shuningdek, qizil kóylekli, qizil shalg'ishli kabi frazeologizmlar ayolning estetik obrazini ifodalaydi. Qizil rang turkiy xalqlar



madaniyatida yoshlik, go'zallik, baxt va quvonch ramzi hisoblangan. Shu bois mazkur birliklar orqali qiz bolaning nafaqat tashqi go'zalligi, balki uning hayotiy quvvati ham tasvirlanadi.

Qoraqalpoq tilida ayolning axloqiy fazilatlarini bilan bog'liq frazeologizmlar ham juda ko'p uchraydi. Jumladan, qiz qiligi iborasi qiz bolaning nozik fe'l-atvori, hayo va odobini anglatadi. Mazkur birlik orqali xalq ongidagi ideal ayol obrazi namoyon bo'ladi. Ya'ni qiz kamtar, muloyim, tarbiyali va iboli bo'lishi kerak degan tushuncha ustuvor hisoblanadi. Bundan tashqari, qiz oyatiw frazeologizmi xalqning uyat va or-nomus haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Qoraqalpoq jamiyatida qizning odobi butun oilaning obro'si bilan bog'langanligi sababli mazkur tushuncha alohida ahamiyat kasb etgan. Natijada ayolga nisbatan ijtimoiy nazorat kuchli bo'lgan va bu holat frazeologik birliklarda ham o'z aksini topgan [2, 85-92].

Qoraqalpoq tilidagi ko'plab frazeologizmlar nikoh va oilaviy an'analar bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, qiz ayttiriw frazeologizmi sovchilik jarayonini bildiradi. Ushbu birlik orqali xalqning nikohga jiddiy ijtimoiy hodisa sifatida qarashi namoyon bo'ladi. Chunki an'anaviy jamiyatda nikoh nafaqat ikki yoshning, balki ikki oila va urug'ning birlashuvi sifatida tushunilgan. Shuningdek, qiz alisiw va qiz uzatiw birliklari ham oilaviy marosimlar bilan bog'liq madaniy ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ayniqsa, qiz uzatish marosimida ota-onaning hissiy holati, qizning yangi hayotga qadam qo'yishi va qarindoshlik munosabatlari muhim o'rin

tutadi. Qiz jasawi frazeologizmi esa qizning sepi tayyorlash jarayonini anglatadi. Ushbu birlik orqali xalqning mehnatsevarlik, ozodalik va uy-ro'zg'or yuritishga oid qarashlari ifodalanadi. Chunki an'anaviy qarashlarga ko'ra, qizning sepi uning tarbiyasi va oilaviy tayyorgarligining ko'rsatkichi hisoblangan. Bundan tashqari, qizdin jiygan jugindey frazeologizmi ozoda va saranjom narsalarga nisbatan qo'llanadi. Mazkur birlik ayolning uy tutishdagi o'rnini va tartib-intizomga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi.

Qoraqalpoq xalq madaniyatida ayol obrazi faqat oilaviy hayot bilan emas, balki xalq o'yinlari va marosimlari bilan ham bog'liqdir. Masalan, qiz quwiw milliy xalq o'yini yoshlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Ushbu o'yinda yigitning epchilligi va jasurligi, qizning esa chaqqonligi hamda go'zalligi namoyon bo'ladi. Mazkur frazeologizm orqali qoraqalpoq xalqining estetik qarashlari, yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy munosabatlari aks etadi. Shu sababli frazeologizmlar faqat til birligi emas, balki xalqning madaniy xotirasi sifatida ham ahamiyatlidir [4].

Ingliz tilidagi frazeologik birliklar G'arb madaniyatining tarixiy taraqqiyoti, individualizm va gender tengligi g'oyalari ta'sirida shakllangan. Shu sababli ingliz tilida ayol obrazi ko'proq shaxsiy xarakter, mustaqillik va hissiy holat bilan bog'liq holda ifodalanadi. Masalan, a girl next door frazeologizmi samimiy, oddiy va tabiiy qiz obrazini anglatadi. Ushbu birlik orqali ingliz jamiyatida tabiiylik va ochiqlik qadrlanishi ko'rinadi. Bundan tashqari, old maid frazeologizmi turmush qurmagan katta yoshdagi ayolga nisbatan ishlatiladi [6]. Ushbu birlikda



salbiy stereotip mavjud bo'lib, u tarixan ayolning jamiyatdagi maqomi oilaviy holati bilan bog'langanini ko'rsatadi. Shuningdek, drama queen frazeologizmi hissiyotlarini haddan tashqari ko'rsatadigan ayolga nisbatan qo'llanadi. Bu birlik zamonaviy ommaviy madaniyat ta'sirida shakllangan bo'lib, unda ayolning emotsional tabiati kinoyaviy tarzda ifodalanadi. Ingliz tilida ayolning mustaqilligini ifodalovchi birliklar ham keng uchraydi. Masalan, career woman iborasi professional faoliyatni ustuvor deb biluvchi ayolni anglatadi. Ushbu frazeologizm G'arb jamiyatida ayolning ijtimoiy va iqtisodiy faolligi yuqori darajada ekanini ko'rsatadi.

Har ikkala til frazeologiyasini qiyosiy tahlil qilish natijasida muhim lingvokulturologik tafovutlar aniqlanadi. Qoraqalpoq tilida ayol obrazi ko'proq kollektiv qadriyatlar bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Ya'ni oilaning sha'ni, qizning odobi, hayo va urf-odatlariga rioya qilish muhim o'rin egallaydi. Ingliz tilida esa ayolning individualligi, mustaqilligi va xarakter xususiyatlari ustuvorlik qiladi. Bu esa G'arb va Sharq madaniyati o'rtasidagi mental farqlarni ko'rsatadi. Biroq har ikki til

frazeologiyasida ham ayolga nisbatan ijobiy va salbiy stereotiplarning mavjudligi kuzatiladi. Demak, frazeologik birliklar nafaqat madaniyatni aks ettiradi, balki jamiyatdagi gender stereotiplarini ham shakllantiruvchi vosita hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, "ayol" konsepti ingliz va qoraqalpoq tillarida turli lingvomadaniy xususiyatlar orqali namoyon bo'ladi. Qoraqalpoq frazeologiyasida ayol obrazi asosan hayo, ibo, oilaparvarlik va milliy qadriyatlar bilan bog'liq holda ifodalansa, ingliz frazeologiyasida ayolning individualligi, mustaqilligi va hissiy holatiga ko'proq urg'u beriladi. Frazeologizmlar xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti va axloqiy qarashlarini o'zida mujassamlashtiruvchi muhim lingvistik birlik hisoblanadi. Shu sababli ayol obraziga oid frazeologizmlarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish xalq madaniyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bunday qiyosiy tadqiqotlar esa nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, etnolingvistika va gender tadqiqotlari rivojida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Abakarova, M. A. (2014). Linguocultural peculiarities of the concept "woman" in the Lak and English languages. Язык. Словесность. Культура, (3), 9-23.
2. Ismailov, G. M. (2017). Linguocultural Study of Gender Stereotypes in Turkic Phraseology (on the Material of Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages). Polylinguality and transcultural practices, 14(1), 85-92.
3. Khurshid Sayfullaev. (2023). APPROACH TO THE STUDY OF NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF GENDER STEREOTYPES IN THE ENGLISH AND UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 4(02), 192-200. <https://doi.org/10.37547/mesmj-V4-I2-28>



4. Pirniyazova A. Qaraqalpaq tili frazeologiyalıq sisteması hám onıń stilistikalıq imkaniyatları. Filol.iliml.dokt. (DSc)... diss. avtoreferatı. –Nókis, 2020, 36-bet.
5. Qayıpnazarova, U. (2025, November). QARAQALPAQ TILINDE LINGVOMÁDENIYATTANÍW MÁSELELERI HÁM ONÍŇ MILLIYLIKTI SÁWLELENDIRIWDEGI ÁHMIYETI. In Conferences (Vol. 1, No. 7, pp. 169-172).
6. Zykova I.V. Gender Component in the Structure and Semantics of Phraseological Units in Modern English. Dis. ... cand. philol. Sciences. - Moscow: MGU, 2002. - 219 p.